



## QURILISH KORXONALARIGA INVESTITSIYALARNI JALB QILISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH

**Normirzayev Ulmasjon Muzaffarjon o'g'li**

*Toshkent arxitektura-qurilish instituti*

*normirzayevulmasjon@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada qurilish korxonalariga investitsiyalarni jalg qilish va unga innovatsion yondashish, bugungi kundagi respublikamizda qurilish va u bilan bog'liq faoliyat haqida, shuningdek, qurilishning samaradorligini oshirish borasida fikr-mulohazalar bayon etilgan. Qurilish sohasidagi islohotlar, loyihalar, farmon va qaror, ularning samaradorligini oshirishga oid nazariy qarashlar imkon qadar yoritilgan bo'lib, qurilish sohasini yanada rivojlantirish haqida xulosaviy takliflar ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** qurilish, farmon va qarorlar, investitsiya, loyiha, raqamlashtirish, islohotlar, statistika.

Yurtimizda bunyodkorlik ishlari yildan yilga kengaymoqda. Uzoqni o'ylab qilinayotgan islohotlar, jumladan, respublikamizning barcha hududlarida qurilish jarayonlarining bosqichma-bosqich va tizimli amalga oshirilishi fikrimizni tasdiqlaydi. Qishloq joylarda ham qurilish ishlari jadal rivojlanmoqda. Bular, albatta, sohani keng rivojlantirish, kadrlarda shaffoflikni ta'minlashni taqozo etadi. So'nggi uch yil ichida quyidagi masalalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning 40 ga yaqin qarori qabul qilindi. Bu sa'y-harakatlarning izchil davomi sifatida davlatimiz rahbarining 2020-yil 13-martdagi Farmonida qurilish sohasidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish, unga investitsiyalarni jalg qilish, byurokratik to'sislarni cheklash, barcha bosqichlarda shaffoflikni ta'minlash, innovatsion ishlanmalar va ilg'or axborot texnologiyalarini keng qo'llash chora-tadbirlari belgilandi. Xususan, 2021-yil 22-fevraldagi 87-sonli "Kapital qurilishda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori kuchga kirdi.<sup>33</sup>

Qurilish korxonalarida ishlab chiqarish xalq xo'jaligining eng yetakchi tarmoqlaridan biri bo'lib, u o'zining bir qancha xususiyatlari bilan boshqa sohalardan tubdan farq qiladi. Bu avvalo, qurilishning sermehnat, serashyo va yaratilgan mahsulotlarning o'z joyida qolishi bilan xarakterlanadi. Qurilish deganda, faqat yangi turdag'i mukammal binolar yoki inshootlar qurilishinigina ko'z oldimizga keltirmay, balki mavjud inshootlarni kengaytirish yoki yangi texnologiyani joriy qilish maqsadida binolarni qayta qurish, foydalanish davrini oshirish ularni ta'mirlash ham nazarda tutilishi lozim.

<sup>33</sup> <https://lex.uz/docs/-5300195/>



2021-yilda sohada o'zlashtirilgan investitsiyalar salmog'i 1,5 mlrd dollarni, shundan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 710,4 mln dollarni (53%) tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2019-yilga (370,2 mln dollar) nisbatan qariyb 4 baravarga ko'p. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni (72,5 mln dollar) oqimi esa 9 baravardan oshdi. Shu jumladan, 2021-yilda ishga tushirilgan loyihalar soni 799 tani va ularga sarflangan investitsiyalar miqdori 588,0 mln dollarni tashkil etdi, shundan: Respublika investitsiya dasturi (2020-yil 19-dekabrdagi PQ-4067-sonli qaror) doirasida umumiy qiymati 334,4 mln dollar bo'lgan 45 ta yirik loyiha; Hududlarni rivojlantirish dasturi doirasida umumiy qiymati 250,6 mln dollar bo'lgan 757 ta loyiha ishga tushirildi.

Bunda, asosan mablag'lar zamonaviy, yenergiya tejamkor qurilish materiallari ishlab chiqarish loyihalariga qaratildi. Jumladan, 2021-yilda 3,5 mln tonna sement, 150 ming kub metr temir-beton mahsulotlari, 1,8 mln rulon gulqog'oz (oboi), 210 ming dona sanitар-texnik buyumlar, 180 ming tonna qurilish armaturasi, 27 mln dona keramik bloklar, 34 ming kub metr gazobeton bloklari, 32 ming dona smesitel, 10 mln kv metr gipsokarton listlari, 252 ming kv metr dekorativ panellar, 10,5 ming tonna lakkbo'yoq mahsulotlari, 2,8 mln kv metr keramik plitkalar ishlab chiqarish kabi yangi quvvatlar yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 9-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasining 2020-2022 yillarga mo'ljallangan Investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4563-sonli qaroriga asosan 2020-2022 yillarda umumiy qiymati 6 059 mln dollarga teng 120 ta qurilish materiallari ishlab chiqarishni tashkil etish loyihalarini amalga oshirish belgilangan. 2020-yilning o'zida barcha manbalar hisobidan ushbu 120 ta loyiha bo'yicha 1,8 mlrd dollar, shu jumladan xorijiy investitsiyalar hisobidan 1,4 mlrd dollar o'zlashtirish va 64 ta loyihani esa ishga tushirish ko'zda tutilgan. Ushbu loyihalarni 2020-yilda ishga tushirish natijasida 5,1 mln tonna sement, 22 mln kv metr silliq (float) qurilish oynasi, 2,5 mln kv metr linoleum, 100 ming kv metr steklokristalit, 750 ming kub metr gazobeton bloklari, 50 ming dona sanitар-texnik buyumlar, 200 ming kub metr DSP plitalari, 240 ming tonna quruq qurilish aralashmalari ishlab chiqarish va 800 ming kv metr tabiiy pardozbop toshlarni qazib olish va qayta ishlash kabi quvvatlar yaratiladi.<sup>34</sup>

Joriy yilda respublikamiz bo'yicha qurilish materiallari ishlab chiqarish yo'nalishda 17 ta investitsion loyiha bo'yicha 316,9 million AQSH dollarilik miqdorida investitsiya o'zlashtirilishi belgilangan edi. E'tiborlisi, joriy yilning birinchi yarmi yakunlari bo'yicha jami 118,7 million dollar miqdoridagi investitsiyalar o'zlashtirilib, Toshkent viloyatida "EMG" MChJ korxonasida yiliga 2,1 million kvadrat metr keramogranit, Sirdaryo viloyatida "Gret Val Star" MChJda yiliga 30,0 ming kub metr MDF plitalari ishlab chiqarish bo'yicha yangi quvvatlar ishga tushirilgani shunday sa'y-harakatlar samarasidir.

Ayni kunlarda esa Toshkent viloyati Ohangaron shahridagi sanoat hududida "Ohangaronsement" AJ bazasida qad ko'tarayotgan yangi zavodning ishlab chiqarish

<sup>34</sup> <https://lex.uz/docs/-4689640/>






liniyasida umumiylar qurilish ishlari tugallanmoqda. Bu haqda "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi tomonidan OAV vakillari uchun tashkil etilgan matbuot anjumanida aytib o'tildi.

### **Investitsiyalar va qurilish faoliyatining asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari**

Ko'rsatkichlar	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar - jami, mlrd. so'm	44810,4	51232,0	72155,2	124231,3	195927,3	210195,1	239552,6
Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar - jami, mlrd. so'm	21,3	21,1	23,9	30,6	38,3	36,2	35,4
Uy-joy va ijtimoiy-soha ob'ektlarini yangi qurilish va rekonstruksiya hisobiga ishga tushirish:	130587	12251,0	12041,7	14052,5	13054,8	12152,1	14052,7
Uy-joylarning umumiylar maydoni ming m <sup>2</sup>	2052,7	11280,0	11456,4	13398,6	15501,5	12867,9	14045,5
umumta'limga mablag'i, ming o'quvchi o'rinni	57,9	88,9	94,6	80,4	114,1	119,3	154,3
kasb-hunar kollejlari, ming o'quvchi o'rinni	3,2	3,3	0,2	-	-	-	-
litseylar, ming o'quvchi o'rinni	1,5	1,5	-	-	-	-	-
kasalxonalar, ming yotoq	10,3	10,1	4,3	6,1	7,4	5,7	6,5
poliklinika muassasalari, shu jumladan qishloq vrachlik punktlari, smenada ming qatnov	7,3	9,9	7,7	20,0	20,7	7,2	6,8

**Manba:** <https://www.stat.uz/rasmiy-statistika/investments/>

Bundan tashqari, hozir kunda davlatimizda 25 ta sement ishlab chiqaruvchi korxonalari faoliyat yuritib kelmoqda, 2021-yil avgust oyidan boshlab "Qizilqumsegment" AJ tomonidan respublikamizda birinchi bo'lib M-600 markali yuqori sifatlari sement ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Umuman, olganda bugungi kunda davlatimizda 10 mingga yaqin qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar





mavjud bo'lib, 180 turdan oshiq qurilish materiallari ishlab chiqarilmoqda, bularga gulqog'oz, linoleumlar, g'isht, pardozbop toshlar, ohak, polipropilen quvur kabilar Rossiya, Ukraina, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Tojikiston va Afg'onistonga yetkazib berilmoqda.

Yuqoridagi nazariy va tahliliy mulohazalardan xulosa qilishimiz mumkinki, qurilish sohasiga zamonaviy yondashuvlar inson hayotining farovon kechishi uchun xizmat qiladi. Shunday ekan, barcha rivojlanayotgan sohalar kabi qurilish korxonalariga investitsiya ajtatish, innovatsion texnologiyalarni qo'llash iste'molchiga ham, ishlab chiqaruvchiga ham qulaylik yaratadi. Jahon andozalariga mos inshootlarni yaratishda qurilish sohasini raqamlashtirish va menejmentni innovatsion tashkil etish mazkur faoliyatni amalga oshirishdagi qiyinchiliklarni yengillashtirish va tez hamda oson rivojlantirishga imkon beradi.

Shunday qilib, qurilish sohasi hozirgi kun mamlakatimiz iqtisodiyotining isloh qilinishi kerak bo'lgan tarmoqlaridan biridir, yil sayin ortib borayotgan aholini uy-joy bilan ta'minlash davlat miqyosidagi siyosiy masalaga aylandi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Иноярова Д.Ш. Курилишда менежмент. – Тошкент, 2018. – 212 бет.

2. Фатхуддинов Р.А. Инновационный менеджмент. Классификация, структура и отличительные черты инновационных организаций, экономические законы организации, научные подходы и принципы и др. Учебник для вузов иза. – Питер 2007, 230 с.

3. <https://lex.uz/docs/-4689640/>

4. <https://xalqso'zi.uz/qurilish-sanoatiga-qancha-investitsiya-jalb-etilmoqda/>

5. <https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments/>

